«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
26 iyul 2013 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
14.11.2012 yildagi № 47-sonli bayonnoma.

MAKROPRIM KONSENTRAT PREPARATINI
VETERINARIYADA QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 «Makroprim konsentrat».
1.2 «Makroprim konsentrat» rangi oq rangdan sut rangigacha bo'lgan, suvda yaxshi eriydigan kukundir.
1.3 100 g preparatda 5 g tilozin, 17,5 g sulfamerazin yoki sulfadimidin, 3,5 g trimetoprim va 30 mln. HB kolistin sulfat mavjud.
1.4 «Makroprim konsentrat» polimer paketlarga 50, 100, 250, 500 yoki 1000 grammdan yoki polimer idishlarga 250; 500, 1000, 2000 yoki 3000 grammdan qadoqlangan holda ishlab chiqariladi.
1.5 Preparatni B ro'yxati bo'yicha, quruq, yorug'likdan pana, bolalar yeta olmaydigan joyda, 0°C dan +20°C gacha bo'lgan haroratda saqlash lozim.
1.6 Belgilangan tashish va saqlash sharoitlariga rioya qilish sharti bilan, preparatning yaroqlilik muddati ishlab chiqarilgan sanasidan boshlab 2 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 «Makroprim konsentrat» – majmuaviy antibakterial preparat bo'lib, gram-manfiy (E. coli, Klebsiella spp., Salmonella spp., Proteus spp., Campylobacter spp., Pseudomonas aeruginosa, Bordetella spp., Pasteurella spp., Haemophilus spp., Actinobacillus spp., Brucella spp.) va gram-musbat bakteriyalar (Staphylococcus spp., Streptococcus spp., Listeria monocytogenes, Erysipelothrix suis), mikoplazmalar, xlamidiyalar, eymeriyalarga nisbatan bakteriyalarni qiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Viruslar va zamburug'lar preparatga sezgir emas.
2.2 Preparatning betakror tarkibi preparatning mikoplazmali, bakterial va aralash yuqumli kasalliklarga nisbatan faolligining keng doirasini ta'minlaydi.
Tilozin, sezgir mikroorganizmlarning 50S ribosomali subbirligi bilan birikib, ribosomaning tRNK (peptidil-t-RNK) bilan bog'lanish uchastkasini bloklaydi, bu esa aminokislotalarning birikish jarayonini va peptidlar zanjirining o'sishini buzadi.
Sulfamerazin yoki sulfadimidin va trimetoprim digidrofoliyli kislotaning sintezini bloklash yo'li bilan, purinli va pirimidinli nukleotidlarning sintezini buzadi.
Kolistin sitoplazmatik membrananing fosfolipid komponentlarini bloklaydi, uning tarkibiy tuzilmasini buzadi va bakteriyalarning lizis holatini keltirib chiqaradi.
2.3 Preparatning ta'sir etuvchi moddalari, kolistin sulfatdan tashqari, oshqozon-ichak tizimdan yaxshi so'riladi, barcha a'zolarga va to'qimalarga kirib o'zlashadi. Terapevtik miqdori 12 soat davomida tutib turiladi. Preparat organizmdan siydik va najas bilan chiqariladi.

3. PREPARATNI QO'LLASH TARTIBI

3.1 «Makroprim konsentrat» preparatning tarkibiy moddalariga sezgir mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan kasalliklarda qishloq xo'jalik hayvonlarini va parrandalarni davolash uchun va profilaktikasi uchun mo'ljallangan. Preparat nafas olish a'zolari, oshqozon-ichak tizimi va siydik-jinsiy a'zolar tizimi kasalliklariga, kolibakterioz, salmonellyoz, yelin kasalligi, xlamidioz, mikoplazmoz va boshqa kasalliklarga, shu jumladan aralash kasalliklarga uchragan hayvonlarni davolashda yaxshi samara beradi.
3.2 ***Preparat og'iz orqali, yem yoki suvga aralashtirib beriladi. Zarur bo'lganda, preparat guruhli usulda 1,5% premiks shaklida (bir tonna yemga 1,5 kg preparat) qo'llanadi va 5-7 kun davomida beriladi.*** Yemga aralashtirilgan preparat ikki oy davomida o'z faolligini saqlab qoladi. Preparatning tayyorlangan eritmasini 48 soat davomida ishlatish lozim.
- Yirik qoramol va mayda shoxli molga, cho'chqalarga preparat hayvonning 10 kg tana vazniga 1 g preparat dozasida qo'llanadi, kuniga ikki marta yem yoki suv bilan 5-7 kun davomida beriladi.
- Parrandalarga preparat 1000 kg yem uchun 1,5 kg preparat yoki 1000 l suv uchun 1 kg preparat hisobidan, 3-5 kun davomida beriladi. **Davolash paytida parranda faqat tarkibida preparat bo'lgan suvni ichishi lozim.**
3.3 Tavsiya etilgan dozalarida preparat nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi. Preparat yuqori dozalarda belgilangan holda buyraklar shikastlanishi, agranulotsitoz yuzaga kelishi mumkin.
3.4 Preparatni qo'llash mumkin bo'lmagan holatlarga buyraklar, jigar kasalliklari kiradi. Preparatning oltingugurt (natriy tiosulfat, unitiol) va paraaminobenzoy kislotasi (novokain, anestezin) moddalaridan olingan hosilalar bo'lgan dori vositalari bilan birgalikda qo'llanishi mumkin emas.
3.5 Nojo'ya reaksiyalar yuzaga kelganda (toshmalar - eshakemi, qusish), preparatning qo'llanishi to'xtatiladi va antigistamin preparatlar (dimedrol, tavegil), kalsiy preparatlari, natriy gidrokarbonat belgilanadi.
3.6 Preparat tuxum qo'yuvchi tovuqlarga tuxum qo'yish davrida, va echkilarga belgilanmaydi.
3.7 Hayvonlarni va parrandalarni go'sht olish uchun so'yish preparatni oxirgi qo'llashdan keyin kamida 8 sutka o'tganidan so'ng ruxsat etiladi. Majburan hollarda ko'rsatilgan muddat tugashidan avval so'yilgan hayvonlarning go'shti etxo'r hayvonlarni ovqatlantirish uchun ishlatiladi. Hayvonlardan olingan sutni preparatni oxirgi qo'llashdan keyin kamida 5 sutka o'tganda kishilar uchun oziq-ovqat sifatida ishlatish mumkin. Bu muddat tugaguncha sut hayvonlarni ovqatlantirish uchun ishlatiladi.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

4.1 Preparatni qo'llashdan keyin asoratlar aniqlangan holda, ushbu seriyadan foydalanish to'xtatiladi va bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga (700178, Toshkent shahri, Qoraqamish 2/4 dahasi, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy) va preparatni ishlab chiqaruvchiga bildiriladi.
Ayni paytda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga hayvonlarda asoratlarni yuzaga keltirgan preparat seriyasining namunalarini, asoratlarning batafsil ta'rifi bilan birga, yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TSh 64-00483044-55:2010

biveco®
biveco.com